

## MA'MUNIY XORAZMSHOHLAR DAVRI SAVDO MARKAZLARI VA SAVDO YO'LLARI

*Abdrimov Zarifboy Erkinovich, Urganch davlat universiteti,  
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti "Falsafa" kafedrasida  
o'qituvchisi*

## TRADE CENTERS AND TRADE ROUTES OF THE KHOREZM SHAH-MA'MUNI PERIOD

*Abdrimov Zarifboy Erkinovich, Teacher of the Department of  
"Philosophy" of the Faculty of Social and Economic Sciences of  
Urgench State University*

## ТОРГОВЫЕ ЦЕНТРЫ И ТОРГОВЫЕ ДОРОГИ ЭПОХИ ХОРЕЗМШАХОВ-МАМУНИДОВ

*Абдримов Зарифбой Эркинович, преподаватель кафедры  
"Философия" факультета социально-экономических наук  
Ургенчского государственного университета*

**Annotatsiya:** X asr oxiri – XI asr boshlarida Buyuk Ipak yo'lining Shimoliy tarmog'i orqali o'tgan savdo munosabatlari jarayonlari nisbatan olganda kengroq o'rganilgan bo'lsa ham, biroq bu savdo jarayonlarida katta ta'sirga ega bo'lgan shaharlar, karvon markazlari, shuningdek, savdo-sotiq olib borilgan yo'llar to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtirilib yagona xulosaga kelinmagan. Xorazm tarixida Ma'muniylar sulolasi davri savdo markazlari va savdo yo'llari masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, **mazkur maqola shu mavzuga bag'ishlangan.**

**Kalit so'zlar:** Buyuk Ipak yo'li, Shimoliy tarmoq, Mang'ishloq, Qizilqal'a, Sharqiy Yevropa, Janubiy Sibir, savdo-sotiq, karvonsaroy, ijtimoiy-iqtisodiy, savdo munosabatlari, yozma manbalar, savdo yo'llari.

**Abstract:** Although the processes of trade relations that passed through the Northern branch of the Great Silk Road in the late 10th - early 11th centuries have been relatively widely studied, but the cities that have a great influence in these trade processes, Information about caravan centers and trade routes was not summarized and a single conclusion was reached. In the history of Khorezm, the issue of trade centers and trade routes during the Ma'muni dynasty is considered one of the most urgent problems, and this article is devoted to this topic.

**Key words:** The Great Silk Road, the Northern Branch, Mangishlak, Kyzylkala, Eastern Europe, Southern Siberia, trade, caravanserai, socio-economic, trade relations, written sources, trade routes.

**Аннотация:** Хотя процессы торговых отношений, проходившие через северную ветвь Великого Шелкового пути в конце X - начале XI веков, были изучены относительно широко, но сведения о городах, караванных центрах, а также торговых путях, имевших большое влияние на эти торговые процессы, не были обобщены и сделаны единые выводы. Вопрос торговых центров и торговых путей периода династии Мамунидов в истории Хорезма считается одной из актуальных проблем, и данная статья посвящена этой теме.

**Ключевые слова:** Великий Шелковый путь, Северная отрасль, Мангышлак, Кызылкала, Восточная Европа, Южная Сибирь, торговля, караван-сарай, социально-экономические, торговые отношения, письменные источники, торговые пути.



<https://orcid.org/0009-0005-6599-5517>

e-mail:

[abdrimovzarifboy123@gmail.com](mailto:abdrimovzarifboy123@gmail.com)

**KIRISH.** Xorazm vohasi tarixi to'g'risida turli tillarda yozilgan qo'lyozmalar va arxeologik topilmalarning asosiy qismi IX – XI asrlarda vohadagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlar keng ko'lamda olib borilganligi, savdo-sotiq ishlari nihoyatda katta miqyosda kengayganligini yaqqol namoyon etadi. X asr oxiri – XI asr boshlarida Ma'muniylar sulolasi vakillari davrida Xorazm davlati katta hududlarni egallamagan bo'lsa ham, o'z faoliyati davomida nafaqat O'rta Osiyo, balki butun jahon xalqlari rivojlanishi uchun zamin yaratishgan. Bu kabi rivojlanish yoki madaniy yuksalishning negizida, albatta, iqtisodiy barqarorlik masalasi turadi. Shu o'rinda ta'kidlashimiz mumkinki, yozma manbalar ma'lumotlari X-XI asrlarda Markaziy Osiyoda olib borilgan savdo-sotiq ishlarida asosiy yetakchilik roli Xorazmga tegishli bo'lganligini isbotlaydi. Xorazmlik savdogarlar savdo ishlaridagi yondashuvlari va professionalligi bilan Sharqda mashhur edi. Demak, shularni inobatga olgan holda, Xorazmshoh – Ma'muniylar davrida kechgan tashqi aloqalari, turli savdo-sotiq yo'llari hamda savdo-sotiq ishlari olib borilgan markazlarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilib o'rgangan holda, Xorazm vohasi tarixidagi Ma'muniylar davridagi mavjud bo'shliqni to'ldirish mumkin. Ikkinchidan esa, tadqiqotlar jarayoniga numizmatik manbalarni ko'proq jalb qilgan holda, ushbu sulolaning savdo-sotiq munosabatlarida qay darajada faol bo'lganligini aniqlash mumkin.

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.** Xorazmning X asr oxiri va XI asr

<sup>1</sup> Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Перевод и комментарии А.П.Ковалевского. – М.-Л.: Наука, 1939. – 256 с.; Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.155-164.

<sup>2</sup> Абу-л-Касым ибн Хаукаль. Книга путей и стран // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.181-184.

<sup>3</sup> Ал-Истахри. Книга месалик ал-мемалик // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т. I. – М. – Л.: Наука, 1939. – С.178-181.

<sup>4</sup> Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I.

boshlarida kechgan savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalari to'g'risidagi aynan Buyuk Ipak yo'lining Shimoliy tarmog'i orqali savdo munosabatlari to'g'risidagi masalalar tadqiqotlarda nisbatan yaxshi aks etgan, lekin bu masalalar yuzasidan alohida bir yozma manba yoki tarixiy tadqiqotlar yo'q. Shuni inobatga olgan holda, mavjud barcha yozma manbalar ma'lumotlarini tahlil qilish lozim. Shu o'rinda, o'z asarlarini arab tilida yozgan tarixchi va geograflar jumlasiga Ibn Fadlan<sup>1</sup>, Ibn Havkal<sup>2</sup>, Al-Istaxriy<sup>3</sup>, Al-Makdisiy<sup>4</sup>, Ibn al-Asir<sup>5</sup>, Yoqut al-Hamaviy<sup>6</sup> asarlarini kiritish mumkinki, ularning asarlarida savdo yo'llari hamda savdo shaharlari to'g'risida ko'pgina qimmatli ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

IX-XIII asrlardagi fors tilida bitilgan manbalar haqida gapiradigan bo'lsak, ular ichida eng muhimlari – Mahmud Gardiziy<sup>7</sup> hamda Abulfazl Bayhakiy<sup>8</sup> kabi mualliflarni keltirmasdan ilojimiz yo'q. Bu asarlar aynan Xorazm vohasida X–XI asrlar tarixidagi bo'lib o'tgan siyosiy jarayonlar bilan bir qatorda vohaning iqtisodiy hayoti va savdo-sotiq munosabatlari to'g'risida ko'pgina ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Ushbu davrning tarixshunosligi tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, birinchidan, arxeologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida biroz ma'lumotlar to'plangan bo'lishiga qaramasdan, bu ma'lumotlar haligacha yetarli darajada tahlil qilingan emas. Ikkinchidan esa, Rossiya tarixchi olimlari tomonidan olib borilgan turli yo'nalishlardagi (asosan arxeologik va numizmatik tadqiqotlar) tadqiqotlar natijalari umumlashtirilib,

Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.185-189, 202-203, 206.

<sup>5</sup> Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.361-362.

<sup>6</sup> Йакут ал-Хамави. Муъжам ал-булдан. //МИТТ, т. I. -М. -Л., 1939. – С.409-438.

<sup>7</sup> Абу Саъид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Украшения известий. С персидского А.К.Арендса. – Т.: Фан, 1961. – 146 с.; Гардизи. Книга зайн ал-ахбар. //МИТТ, т. I. -М. -Л., 1939. – С.228-229.

<sup>8</sup> Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. – М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969. – 1009 с.

yagona bir xulosa chiqarilmagan. Ushbu mavzu yuzasidan, S.P.Tolstov, V.P.Darkevich, B.I.Vaynberg, I.Yu.Pastushenko, M.E.Muhammadiyev, R.M.Valeev, K.A.Rudenko, M.Kalmenov, A.Bijanova, Q.Yu.Masharipov kabi tadqiqotchilar tadqiqotlar olib borganlar<sup>9</sup>.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR.** XI asr boshida

Markaziy Osiyo hududida joylashgan Xorazm davlati Ma'muniylar davrida nafaqat madaniyat sohasida, balki iqtisodiyot rivojida ham yetarli darajada yutuqlarga erishdi. Bu davrda Xorazm vohasi Sharq musulmon sivilizatsiyasining Yevroosiyo dashtlaridagi tayanchi sifatida, turkiy ko'chmanchilar dunyosini slavyan-bulg'orlar va xazarlar bilan bog'lovchi bir ko'prik vazifasini bajargan. Umuman olganda, X – XI asrlarda O'rta Osiyoda olib borilgan tashqi savdo masalasidagi yetakchilik Xorazmga tegishli edi, butun O'rta Osiyo savdo-sotiq ishlari amalda xorazmlik savdogarlar qo'lida jamlangan edi. Xorazmliklar gazlamalar va qurol-yarog'lar, chetdan mo'ynalar, qullar va boshqalar olib kelishgan. Xorazm savdogarlarining savdo aloqalari Xazariya, Volga, Bolgariya, Kiyev Rusi, Skandinaviya, Xitoy, Hindiston, Xuroson, Gurgan va Sharqiy Yevropa, Orolbo'yi, Dashti Qipchoq va Yettisuv ko'chmanchilari bilan olib borilgan<sup>10</sup>.

Umuman, barcha arab va fors tilida yozilgan manbalarda poytaxti Gurganch hisoblangan Shimoliy Xorazm X–XI asrlarda Sharqiy Yevropa va Yevroosiyo dashtlarida yashovchi ko'chmanchilar dunyosi bilan tizimli savdo-sotiq aloqalarda bo'lganligi ta'kidlanadi. Gurganch shahri esa, nafaqat Xorazmda, balki Sharq mamlakatlari shaharlari ichida ham juda yirik savdo markazi bo'lganligi ma'lum<sup>11</sup>. Shu bilan birga, Xazar va Volga Bulg'oriyasi bilan bo'lgan savdoda Gurganch yana Iroq va Erondan Sharqiy Yevropaga boruvchi eng yaqin va qulay yo'l ustida joylashgan edi.

X asr oxirlariga kelganda, Xorazmning poytaxti bo'lmish Gurganch shahridan boshqa, Mizdahqon, Jigarband, Jit, Sadvar, Ardaxushmisan, Kardaranxos, Darxos, Xiva, Puljoy (Git), Bug'roxon (Madminiya) kabi katta shaharlari mavjud bo'lib, ularda shakllangan, o'sha davr uchun katta bozorlari bo'lgan.

Xorazmshoh-Ma'muniylar davrida Shimoliy tarmoq bo'lmish karvon yo'li orqali olib borilgan savdosida Volga daryosining o'rta va yuqori oqimlarida joylashgan Xazar va Bulg'or xalqlari bilan bo'lgan mol ayirboshlash juda katta ahamiyat kasb etgan. Bu savdo jarayonlarining qanday darajada bo'lganligi, X asr 60-yillaridan boshlangan Xazar – o'g'uz, Xazar – Kiyev Rusi davlatlarining diplomatik munosabatlarida Xorazmning birinchi va asosiy siyosiy o'yinchi sifatida, bu jarayonlarda juda faol ishtirok etganligini ko'rsatadi.

<sup>9</sup> Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т.: Фан, 1964. – 440 б.; Вайнберг Б.И. Экология Приаралья в древности и средневековье // ЭО, №1, 1997. – С.23-41; Валеев Р.М. Торговля Волжской Булгарии с северной и западной Европой в домонгольский период (IX – начало XIII века) // Вестник НГУ. Серия: История, филология. Том 10, выпуск 3: Археология и этнография. – С. 180 (175-182); Даркевич В.П. Аргонавты средневековья. – М.: КДУ, 1976. – 256 с.: ил.; Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII-XIII вв. Произведения восточной торевики на территории европейской части СССР и Зауралья // М.: Наука, 1976. – 199 с.; Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта [Текст] / [В.Н.Ягодин, Н.Ю.Супов, Е.Бижанов и др. ; Отв. ред. чл.-кор. АН УзССР С.К.Камалов]. – Ташкент: Фан, 1978. – 327 с. : ил.; 22 см.; Калменов М.,Бижанова А.Торгово-водные пути Хорезмского оазиса в древности / Материалы Международной научно-практической конференции «Город и городская культура Южного Приаралья: история и перспектива», посвященной 85-летию В.Н.Ягодина –

Нукус – 2017 – С. 105-107; Машарипов Қ.Ю.Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X – XV асрлар). – Урганч: УрДУ нашриёти, 2016. – 152 б.; Мухаммадиев М.Э. Средняя Азия в торговле в VI-XII века. // Norwegian Journal of development of the International Science, 2018. №17. – С.29-34; Пастушенко И.Ю. Волго-Камский торговый путь в I тыс. н.э. // Пути сообщения, коммуникации, научные достижения народов Евразии: Материалы межд. науч.-практ. конф. Березники, 1997. – С.36–38; Руденко К.А. Тюркский мир и Волго-Камье в XI-XIV вв. Изделия аскизского круга в Среднем Поволжье. Исследование и каталог. – Казань: Заман, 2001. – 256 с.

<sup>10</sup> Мухаммадиев М.Э. Средняя Азия в торговле в VI-XII века. // Norwegian Journal of development of the International Science, 2018. №17. – С.31.

<sup>11</sup> Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.228-229; Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. – М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969. – 1009 с.; Йакут ал-Хамави. Му'жам ал-булдан. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.409-438.



Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, 965-yilda rus knyazi Svyatoslavning Belaya Veja (Sarkel) shahri yaqinida bo'lib o'tgan jangda Xazarlarning asosiy qo'shinini engib, bu davlat tugatilgan vaqtda ham, Xorazm Xazar xoqonligining, bundan keyingi siyosiy jarayonlardagi "merosxo'ri" sifatida o'zini namoyon etib, siyosiy kurashini davom ettirgan va Quyi Volganing eng muhim savdo markazlariga egalik qilishga xarakat etgan.

Gurganch amirlarining bu kabi siyosiy harakatlari ko'pincha muvaffaqiyatli kechgan, tarixchi Maqdisiy bu haqda ba'zan Xazariylarga tegishli shaharlarni Jurjoniya hokimi egallab olganligini yozib qoldirgan<sup>12</sup>.

Rossiyalik tadqiqotchilar I.Yu.Pastushenko va K.A.Rudenkolarning Volga bo'yi Bolgariya hududidan topilgan dirham tangalari xazinalari to'g'risida bir qancha ilmiy maqolalari chop etildi. Ular Volga Bolgariyasining rivojlanishida savdo-sotiq ishlari olib boriladigan savdo yo'llari ahamiyatini ta'kidlab, davlatning gurkirab rivojlanishini X asrda Volga yo'lining mavjudligi bilan izohlab, XI asr boshlarida esa ushbu savdo yo'li o'z o'rnini Transoksaniya – Xorazm – Qozoq cho'li – Volgabo'yi va Kama viloyati yo'lga bo'shatib berib asosiy yo'lga aylandi<sup>13</sup>.

Shu jumladan mazkur savdo yo'llarida 1946, 1950, 1964, 1975-1978 va 1982-yillarda arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot natijasida Ustyurtning Sharqiy qirlarida va Markaziy Ustyurt hududida turli-tuman savdo inshootlari – aholi manzilgohlari, rabotlar, sardobalar, minoralar, karvonsaroylar va quduqlar mavjudligi aniqlangan va o'rganilgan. Ustyurtning Sharqiy qirlari janubidagi Shemaxaqal'a manzilgohidan to uning shimolidagi Kurganch manzilgacha platoning chekkalari bo'ylab, taxminan 300 km uzunlikda va Ustyurt jarliklari yoqalab bir-biridan har xil masofa uzoqlikda joylashgan minoralar, shaharchalar, qabristonlar va boshqa turdagi bino va inshootlar xarobalari saqlanib qolgan. Ushbu bino va inshootlar qatoriga yana Ustyurt platosi hududlaridagi, Oybo'g'ir botig'idan janubda joylashgan manzilgoh

va inshootlar ham kiradi. Sharqiy hududlarda 24 ta minora, 10ga yaqin manzilgoh va karvonsaroylar o'sha davrda faoliyat yuritgan bo'lib, ulardan topilgan topilmalar asosida xulosa chiqaradigan bo'lsa, bu yodgorliklar IX-X asrlarda shakllangan bo'lsa-da, ulardan ayniqsa XI-XIII asrlarda keng ko'lamda foydalanilgan. Lekin, inshootlarning vaqt o'tishi natijasida xaroba holatga kelganligi sababli, ulardan nima maqsadlarda foydalanilgani borasida yagona to'xtamga kelish qiyin. Shu o'rinda, ularning Amudaryo sohillari bo'ylab joylashganligi, yon-atrofida aholi manzilgohlari borligiga qarab, shuningdek minoralarning ko'pchiligi Ustyurt qirlari bo'ylab chiqish uchun ancha qulay balandlikda joylashganligidan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, bu minoralar bir emas bir qancha vazifalarni bajargan. Ya'ni, minoralarning ko'pchiligi yonida aholi manzilgohlari bor bo'lgan. Bu minoralardagi mash'ala signallariga qarab Amudaryoda suzayotgan kemalar o'z yo'nalishlarini belgilagan. Tuya karvonlari esa, shu minoralarga qarab yassi tog'liklarga chiqish uchun qulay joylarni aniqlaganlar. Sababi ushbu minoralar uzoqdan ham nur taratgan. Ana shu sabablarga ko'ra, minoralar ko'proq savdo karvonlarining yo'llarni to'g'i va aniq belgilash uchun qurilgan. Bu yerda yana yuqoridagi ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdo Xorazm uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsa, S.P.Tolstovning bu minoralarning ko'proq harbiy-mudofaa vazifasiga ega bo'lganligi to'g'risidagi fikrini inkor qiladi<sup>14</sup>. S.P.Tolstov fikricha, bu yodgorliklar bizni "o'g'uzlar bilan bo'lgan shiddatli kurash sharoitiga olib kiradi"<sup>15</sup>. Bu fikrni Ya.G'.G'ulomov, V.N.Yagodin, Ye.B.Bijanov, A.V.Gudkovalar ham qo'llab-quvvatlagan edilar.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR:**

Umumiy xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash joizki, Xorazmshoh – Ma'muniylar davlatining qo'shni davlatlar bilan olib borilgan savdo – sotiq munosabatlarida poytaxt Gurganch shahrining o'rni beqiyosdir. Gurganchdan tashqari, Git, Safardiz, Ardaxushmisan, Puljoy, Kat, Kardor,

<sup>12</sup> Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.209.

<sup>13</sup> Валеев Р.М. Торговля Волжской Булгарии с северной и западной Европой в домонгольский период (IX – начало

XIII века) // Вестник НГУ. Серия: История, филология. Том 10, выпуск 3: Археология и этнография. – С. 180 (175-182).

<sup>14</sup> Маньолов Ю.П. Некоторые вопросы исторической топографии... с.284; С.П.Толстов. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М.: 1948, с.249-250.

<sup>15</sup> С.П.Толстов. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 264-бет.

Kardoronxos kabi shaharlar ham Xorazmshoh – Ma'muniylar davlatining savdo-sotiq va tovar ayriboshlash munosabatlarida katta nufuzga ega bo'lgan. Shu bilan birgalikda, arxeologlar tomonidan o'rganilgan manbalar Xorazm vohasining Ma'muniylar sulolasi davrida Buyuk Ipak yo'lida olib borilgan savdo-sotiq aloqalaridagi mavqeyini ko'rsatib berib, bu aloqalarda muhim o'rin egallagan shaharlari, shuningdek savdo munosabatlari olib borilgan savdo yo'llari xususida ma'lum bir xulosalar chiqarish uchun asos bo'la oladi. Shu jihatdan olganda, Xorazmshoh – Ma'muniylar davlatining Sharqiy Yevropa va Janubiy Sibir xalqlari bilan savdo munosabatlari qay darajada yo'lga qo'yilganligi masalasi kam o'rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абу-л-Касым ибн Хаукаль. Книга путей и стран // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939.С.181-184.
2. Абу Саъид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Украшения известий. С персидского А.К.Арендса. – Т.: Фан, 1961. – 146 с.
3. Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., вступление и комментарии А.К. Арендса. – М.: Наука, 1969. – 1009 с.
4. Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. – М. – Л.: Наука, 1939. – С.178-181.
5. Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.185-189, 202-203, 206.
6. Вайнберг Б.И. Экология Приаралья в древности и средневековье// ЭО, №1, 1997. – С.23-41.
7. Валеев Р.М. Торговля Волжской Булгарии с северной и западной Европой в домонгольский период (IX – начало XIII века) // Вестник НГУ. Серия: История, филология. Том 10, выпуск 3: Археология и этнография. – С. 180 (175-182).
8. Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.228-229.
9. Даркевич В.П. Аргонавты средневековья. – М.: КДУ, 1976. – 256 с.: ил.
10. Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII-XIII вв. Произведения восточной торевики на территории европейской части СССР и Зауралья // М.: Наука, 1976. – 199 с.
11. Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта. – Ташкент: Фан, 1978. – 327 с. : ил.; 22 см.
12. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.361-362.
13. Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Перевод и комментарии А.П.Ковалевского. – М.-Л.: Наука, 1939. – 256 с.
14. Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939.– С.155-164.
15. Йакут ал-Хамави. Муъжам ал-булдан. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.409-438.
16. Калменов М., Бижанова А. Торгово-водные пути Хорезмского оазиса в древности / Материалы Международной научно-практической конференции «Город и городская культура Южного Приаралья: история и перспектива», посвященной 85-летию В.Н.Ягодина – Нукус – 2017 – С. 105-107.
17. Кызласов И.Л. Аскизская культура (средневековые хакасы X-XIV вв.). // Степи Евразии в эпоху

Средневековья. Серия: Археология СССР. М.: 1981. С. 200-207.

18. Мамбетуллаев М.М. О торговых связях Хорезма в древности и средневековье // Города и каравансарай на трассах Великого Шелкового пути. Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч, 1991. – С.44-47.

19. Маньлов Ю.П. Некоторые вопросы исторической топографии Северо-Западного Хорезма и торговых отношений с юго и восточной Европой и кочевниками // В кн.: Древняя и средневековая культура юго-Восточного Устюрта. – Т.: Фан, 1978. – С. 273-285.

20. Машарипов Қ.Ю. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X – XV асрлар). – Урганч: УрДУ нашриёти, 2016. – 152 б.

21. Мухаммадиев М.Э. Средняя Азия в торговле в VI-XII века. // Norwegian Journal of development of the International Science, 2018. №17. – С.29-34.

22. Очерки истории Каракалпакской АССР. Т.1, С древнейших времен до 1917 г. / [Под ред. С.П.Толстова и др]. – Ташкент: Наука, 1964. - 429 с., 6 л. табл., карт.: ил.

23. Пастушенко И.Ю. Волго-Камский торговый путь в I тыс. н.э. // Пути сообщения, коммуникации, научные достижения народов Евразии: Материалы межд. науч.-практ. конф. Березники, 1997. – С.36–38.

24. Руденко К.А. Тюркский мир и Волго-Камье в XI-XIV вв. Изделия аскизского круга в Среднем Поволжье. Исследование и каталог. – Казань: Заман, 2001. – 256 с.

25. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т.: Фан, 1964. – 440 б.

